***Tolibova Mushtariy***
*Guliston davlat pedagogika instituti talabasi*

# TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA

**Anontatsiya:** Ushbu maqolada har bir jamiyatning kelajagi va ajralmas qismi bo’lgan ta’lim tizimining qay darajada rivoj topayotgani va innovatsion texnologiyalarning ta’lim taraqqiyotida tutgan roli haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Texnologiya, innovatsion, taraqqiyot, kommunikatsion, innovatsion pedagogika, aktiv, passiv, interaktiv, standart, nostandart, virtual, multimedia, interaktiv, interfaol, elektron doska.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo’nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqadi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo’lgan tadqiqotlar dastlab XX asrning 60-yillarida G’arbiy Yevropa va AQShda paydo bo’lgan. Bugungi kunda esa innovatsion faoliyat olib borish har bir soha mutaxxassisi uchun zarur hisoblanadi. Innovatsion faoliyat — to‘plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlari majmui. Shuningdek, innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirish, tarqatish va ulardan foydalanish faoliyati sifatida ham belgilash mumkin.

Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta’lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e’tibor yanada kuchaytirildi. O’zbekistonda ham so’nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo’lib ta’lim tizimiga kirib keldi. Ta’limni axborot bilan ta’minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog’lash, ommaviy axborot vositalarining ta’lim sohasidagi o’rni hisoblanadi. O’qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta’lim mazmunida, o’qitish metodlarida, dars shakli, o’qitish turlari, o’qitish vositalarida ko’rishimiz mumkin.

- Ta’lim mazmuniga innovatsiya an’anaviy, noan’anaviy va masofaviy o’qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.
- O’qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko’ramiz.
- Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda vertual dars shakllari misolida ko’rishimiz mumkin.
- O’qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta’lim, evristik ta’lim, darajalangan ta’lim, integratsiyalangan ta’lim, interfaol ta’lim, informal ta’lim, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim turlari bilan izohlanadi.
- O’qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz.

2020-yildagi ta’lim to’g’risidagi qonunda ham masofaviy ta’lim, dual ta’lim, mustaqil ta’lim, inklyuziv ta’lim kabilar ham bugungi zamonga xos bo’lgan ta’lim yo’nalishlari hisoblanadi[3].

Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta’lim muxiti sharoitida mustaqil ravishta faoliyat ko‘rsata olishga axborot oqimidan oqilona foylalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shunga ko’ra yoshlarining talab va istaklaridan kelib chiqqan holda umumkasbiy fanlarni axborot komunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yoshlarning yanada bilim va ko’nikmalarini shakllantirishga harakat qilish bugungi kunning dolzarb muammosi desak xato qilmagan bo’lamiz.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Оэср. руководство осло. рекомендации по сбору и анализу данных по инновациям. Paris: oecd, 2010.
2. Kadrlar tayyorlash miliy dasturi. 463-son. 29.08.1997.
3. Ta'lim to'g'risidagi qonun. O'RQ-637-son. 23.09.2020. 16-20-moddalar
4. J.Hasanboyev. X.A.To'raqulov. O.A. Ravshanov. N.H.Kushvaktov. "Milliy pedagogikaning tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi". Jizzax. 2007-yil.
5. G.N. Ibragimova. "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish". Monografiya. Toshkent. 2016-yil.
6. Anarbayevich, N. T. (2024). O 'ZBEKISTONDA INTERNET ERKINLIGINING YANGI BOSQICHGA KO 'TARILISHI. IMRAS, 7(5), 416-420.
7. Anarbaevich, T. N. (2023). TA'LIM SOHASIDA AKADEMIK ERKINLIK MUAMMOLARI. IQRO, 2(1), 654-658.
8. Anarbayevich, T. N. (2023). Theories about the Idea of Freedom and Their Epistemological Analysis. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(5), 118-122.
9. Tursinkulov, N. A. (2021). ERKINLIK G 'OYASINING FALSAFIY ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 2(6), 831-838.
10. Tursinkulov, N. A. (2024). RAISING INTERNET FREEDOM TO A NEW LEVEL IN UZBEKISTAN. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 2(1), 206-212.
11. Tursinkulov, N. A. (2024). PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE IDEA OF FREEDOM. World of Scientific news in Science, 2(1), 360-368.
12. Tursinkulov, N. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISH DAVR TALABI: MUAMMO VA YECHIMLAR. Архив научных исследований, 2(1).